



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 639 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkinjonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish	276
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li	
Validation of the dutch eating behaviour questionnaire (DEBQ) in a sample of uzbek women.....	285
Khursana Usmanova, Dr Muhammad Bilal, Dilafuz Qo‘chqorova	
Iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini o‘ziga xos jihatlari	295
Nabiyev Bexzod Shavkatovich, Bayboboeva Firuza Nabijonovna	
Davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari	299
Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	
Роль институциональных структур фондового рынка в обеспечении финансовой стабильности.....	305
Камилова Севара Анваровна	
The Impact of Digitalization on the Management System in the Entrepreneurial Environment of Uzbekistan.....	309
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
China’s Investment Strategy in Uzbekistan: Sectoral Trends and Strategic Implications (2013–2024).....	313
Maftuna Nuriddinova	
Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati	319
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Raqamli boshqaruvning afzalliklari va uni rivojlantirish istiqbollari	324
Xolbayeva Marg‘uba Qazoqboyevna	
Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari: O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlari.....	328
Jumayeva Guzal Sherxon qizi	
Audit organizations in Uzbekistan	332
Razzaqov Jasur Xamraboevich, Yaqubov Matrasul Mavlonberdiyevich, Sabirova Nodira Komil qizi	
Xorijiy investitsiyalarning turlari va xususiyatlari	337
Gofurov Doston Boxromovich	
Mahalliy budjet mablag‘larining samaradorligini oshirishda auditning o‘rni.....	341
Primova Shaxnoza Komiljonovna	
Модели управления государственными финансами в зарубежных странах.....	345
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
O‘zbekistonning sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishi: yashil o‘sish indikatorlari tahlili	352
Hakimov Anvarjon Abdulloyevich	
Innovation management in the education system: practical challenges, international experience, and effective strategies based on the example of Uzbekistan.....	356
Imomov Inomiddin Abdulxamidovich, Egamberdiyev Farxod Botirovich	
Трансформация энергетического комплекса Узбекистана: текущее состояние и перспективы развития	363
Хмель Е.В., Мирджалилова Д.Ш., Дерюгина Е.А., Лозовская Н.А.	



Improving the efficiency of personnel management and optimizing labor costs in Sam Glass LLC.....	368
Musayeva Shoira Azimovna, Agzamov Avazkhon Talgatovich	
Interactive design and museum management: enhancing guided tours through IOT and virtual solutions.....	374
Ibrokhimova Aziza Abbasovna	
Hududlar investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	379
Imomova Kamola Novfal qizi	
"Innovatsion usulda baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari (Sirdaryo tumani misolida)"	385
Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li	
Bank filial tarmoqlari samaradorligini baholashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekiston banklari amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	392
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Zamonaviy iqtisodiyotda davlat xaridlarinin elektron savdolarining o'rni	398
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Реализация концепции развития рынка зеленой экономики в сфере экономической безопасности Республики Узбекистан.....	401
Юнусова Римма Рахманбердиевна	
Tijorat banklaridan "foyda" solig'ini undirishning bugungi holati.....	408
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
O'zbekiston oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari	415
Abasova Gulirano Rahmatullo qizi	
Xorijiy tajribalar asosida ekologik tadbirkorlikning innovatsion va investitsion yo'nalishlarini tashkil etish	419
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
Sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish xususiyatlari	424
Raxmonova Feruza Musakulovna	
Turizm sohasida investitsion faoliyat: nazariy asoslar va amaliy yo'nalishlar.....	428
Ergashev Durdonaxon Aziz qizi	
Qashqadaryo viloyatida barqaror turizmning rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolar tahlili.....	432
Suyunova Dilnoza Mexridin qizi	
Iqtisodiy rivojlanish jarayonida investitsion resurslarning mutanosib taqsimlanishi: samaradorlik va ustuvor yo'nalishlar.....	436
Otaboyev Feruzbek Oybek o'g'li	
Xususi banklar faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning moliya bozoriga ta'siri	441
Abduqahhorov Asilbek Ahror o'g'li	
Mehnat resurslari tushunchasi, tarkibi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	447
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Xorijiy davlatlar tajribasida moliyaviy siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli.....	453
Jabborova Dilafruz	
The impact of exchange rate policy on the financial-monetary system and economic growth.....	459
Raxmanova Laylo Baxodirovna	
Современные вызовы и модельные подходы к обеспечению конкурентоспособности банковской системы Узбекистана.....	464
Юлдашева С.Ш.	
Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish yo'llari	470
Ishimova Mohinur Absalomovna	
Innovative pathways for advancing sustainable tourism in Uzbekistan.....	477
Feruz Karimov	



Tijorat banklarida biznes subyektlari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari.....	482
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekistonda sanoat zonalarining rivojlanish bosqichlari va huquqiy-me'yoriy asoslari	488
Vafoyev Akmal Ikromovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishda Germaniya tajribasi	493
Pardayeva Maftuna Ulug'bek qizi	
Korxonalar moliyaviy faoliyati bo'yicha auditorlik risklarini xalqaro standartlar asosida baholash	497
Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abduxalil-zoda Ra'no Muzaffar qizi	
Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va ularni pasaytirish usullari	501
Sodiqov Mirahror Abbos o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy budjetlarning ahamiyati.....	509
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
The role of small business enterprises in enhancing the well-being of the population in Uzbekistan	513
Djalilova Shaxlo Ismoiljon kizi	
O'zbekistonda IPOlarni tashkil etish jarayonlari tahlili	518
Alikulov Azamat Tuygunovich	
Kichik sanoat zonalarini faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili (Surxondaryo viloyati misolida).....	522
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Hududlarning innovatsion turistik salohiyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	528
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Integrating circular economy principles in marketing and operations of grape export companies for green transition.....	534
Usmonova Diyora Mahmud kizi	
Foreign experiences of improving the quality of services in the field of tourism.....	541
Raxmonov Siyovush Turob ugli	
Z avlodining iste'dodli vakillari uchun raqobat: davlat boshqaruvi sektorining maqsadga yo'naltirilgan raqamli avlodni jalb etish strategiyalari.....	546
Nosirova Shaxzoda Bohodir qizi	
O'zbekiston Respublikasida uglerod solig'ini joriy etish orqali soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish imkoniyatlari: ekologik, iqtisodiy va institutsional yondashuv	560
Jo'rayev Ahmad Saitnazar o'g'li	
Tijorat banklari reytingiga ta'sir qiluvchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili.....	566
Karabayev Nodir Abduhamidovich	
Budjet tashkilotlarida tuziladigan moliyaviy hisobotlarning ahamiyati.....	578
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	582
Хусейнов Рахим Али оглы	
Zamonaviy HR texnologiyalarining korxonalar samaradorligiga ta'siri: "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tajribasi.....	589
Xursanova Gulshan Ravshan qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion menejment strategiyalarining samaradorligini oshirish yo'llari	593
Pulatova Dildora Abdushukurovna	
Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning bugungi kunda o'rni va ahamiyati.....	600
Xolmirzayeva Gulruxsor Maxammetovna	
Интеграция информационно-коммуникационных технологий в зеленую экономику: цифровые технологии для устойчивого развития.....	604
Бозорова Ирина Жуманазаровна	



Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning oʻziga xos jihatlari	608
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Цифровизация зеленой экономики: синергия технологий для устойчивого будущего	616
Мухамадиева Кибриё Баходировна, Умарова Надира Рахмановна, Шарипова Зулфия Шокиржоновна, Эшпулатова Хусния Мирғолиб кизи	
O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari bozori va rivojlanishi	621
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
Samarqand viloyatida tikuv-to'qimachilik sanoatining rivojlanish holati va ishlab chiqarish hajmining prognozi.....	629
Ikramova Taxmina Latifovna	



SAMARQAND VILOYATIDA TIKUV-TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH HOLATI VA ISHLAB CHIQUARISH HAJMININIG PROGNOZI

Ikramova Taxmina Latifovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
tayanch doktoranti

Email: tahminaikromova400@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyatining to'qimachilik korxonalari respublika miqyosida hamda xalqaro bozorda o'z mavqeini oshirishi, buning uchun korxonalarda marketing faoliyatini tahlil qilish va unda yangi usullar, yondashuvlar hamda mexanizmlarni tatbiq etish, shuningdek, to'qimachilik va trikotaj-kiyim mahsulotlari import operatsiyalari tarkibida ip-kalava mahsulotlari tahlili ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: korxona, xalqaro bozor, mexanizm, trikotaj-kiyim mahsulotlari, import, operatsiya, tahlil.

Abstract: This article examines the ways in which textile enterprises of the Samarkand region can increase their position in the republican and international markets, for which the analysis of marketing activities at enterprises and the application of new methods, approaches and mechanisms are used, and the analysis of yarn products as part of import operations of textile and knitted and garment products is considered.

Key words: Enterprise, international market, mechanism, knitted and garment products, import, operation, analysis.

Аннотация: Mazkur maqolada Samarqand viloyatining to'qimachilik korxonalari respublika miqyosida hamda xalqaro bozorda o'z mavqeini oshirishi, buning uchun korxonalarda marketing faoliyatini tahlil qilish va unda yangi usullar, yondashuvlar hamda mexanizmlarni tatbiq etish, shuningdek, to'qimachilik va trikotaj-kiyim mahsulotlari import operatsiyalari tarkibida ip-kalava mahsulotlari tahlili ko'rib chiqilgan.

Ключевые слова: korxona, xalqaro bozor, mexanizm, trikotaj-kiyim mahsulotlari, import, operatsiya, tahlil.

KIRISH

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati jahonda jadal rivojlanayotgan industriyalar qatorida etakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. 2024-yilda to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak jahon bozorining hajmi 1695,23 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan. 2030-yilgacha uning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7,7 foiz darajasida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

To'qimachilik sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan yaratilgan qulay sharoitlarda to'qimachilik sanoatining rivojlanishi mamlakat va uning hududlari iqtisodiy o'sishi uchun burilish nuqtasiga aylanishi mumkin. Bunga Xitoy va Hindistonda olib borilayotgan siyosat yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya hamda eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida 2024-yilda ishlab chiqarish hajmi 123,21 trillion so'mni tashkil qildi, shuningdek, sohaning yillik eksport salohiyati 2,9 milliard dollarga etdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimlarni ham e'tirof etish lozim. Bularga I. Abdullaev, A. Saliev, A. Sh. Bekmurodov, A. A. Fattaxov, M. R. Boltaboev, Sh. J. Ergashxodjaeva, M. Kosimova, M. A. Ikramov, Sh. A. Musaeva, G. Sh. Xankeldieva, M. M. Akbarov, S. A. Abdullaeva va boshqalarni kiritish mumkin.

Olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar va ilmiy natijalar to'qimachilik sanoatida marketing faoliyatining ilmiy-uslubiy asoslarini yaratib berdi. Shu bilan birga, to'qimachilik va kiyim bozorining globallashuvi, yangi yirik



ishtirokchilar kirib kelishi va raqobatning yangi usullarining yaratilishi O'zbekiston to'qimachilik sanoati uchun yangi xavf va tavakkalchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun marketing faoliyati uslubiyatini takomillashtirish dolzarb muammoga aylanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil va tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining Samarqand viloyatidagi o'rnini tahlil qilish uchun, avvalo, statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratish lozim. To'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish sanoatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda viloyat statistika ma'lumotlariga ko'ra, ushbu sohani ikki yo'nalish bo'yicha tahlil qilish mumkin: to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va kiyim ishlab chiqarish (1-jadval).

1-jadval. 2017-2024-yillarda Samarqand viloyatida to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarishning dinamikasi¹

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ishlab chiqaradigan sanoat	8870,5	12941,7	15130,6	17396,2	21744,8	27963,5	31739,9	44786,7
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1764,7	2156,5	2166,9	3637,6	4390,0	5132,8	5809,7	7646,8
Kiyim ishlab chiqarish	224,9	341,7	271,3	597,1	657,6	697,1	815,8	1206,8
Jami to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish	1989,60	2498,20	2438,20	4234,70	5047,60	5829,90	6625,50	8853,60

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2017–2024-yillarda viloyatning to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoati jadal sur'atlar bilan rivojlanib kelgan. Agar 2017-yilda jami 8870,5 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 44786,7 milliard so'mga yetdi, ya'ni besh barobarga oshgan.

Bizning tadqiqot obyekti bo'lgan to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmog'ida 2017-yilda jami 1989,6 milliard so'mlik mahsulot yaratilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 8853,6 milliard so'mga oshdi, ya'ni o'sish 4,45 barobarni tashkil etdi.

Shundan xulosa qilish mumkinki, sanoatning boshqa yo'nalishlari to'qimachilik va kiyim sanoatiga nisbatan tezroq rivojlanmoqda. Shu bilan birga, mazkur soha ishlab chiqarish sanoatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib qolmoqda (2-jadval).

2- jadval. 2017-2024-yillarda viloyatda ishlab chiqarish sanoatining tarkibida to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish ulushining o'zgarishi (% da)


	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ishlab chiqaradigan sanoat	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	19,9	16,7	14,3	20,9	20,2	18,4	18,3	17,1
Kiyim ishlab chiqarish	2,5	2,6	1,8	3,4	3,0	2,5	2,6	2,7
Jami to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish	22,4	19,3	16,1	24,3	23,2	20,9	20,9	19,8

1 Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси Самарақанд вилояти бошқармаси маълумотлари асосида тузилган



Ishlab chiqarish sanoatining beshdan bir qismini to'qimachilik va kiyim mahsulotlarini ishlab chiqarish tashkil etadi, ya'ni ushbu yo'nalish sanoatning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Oxirgi yillarda esa to'qimachilik sanoati ulushining pasayishi kuzatilmoqda. 2017-yilda to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish sanoatning 22,4 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 19,8 foizgacha kamaygan.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi kuzatilgan davrda biroz pasaygan, ya'ni 2017-yildagi 19,9 foizdan 2024-yilda 17,1 foizgacha tushgan. Aksincha, kiyim ishlab chiqarishning ulushi 2017-yilda 2,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 2,7 foizgacha oshgan. Ishlab chiqarishdagi bunday o'zgarishlarni quyidagi diagrammadan ham kuzatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2017-2024 yillarda Samarqand viloyatida to'qimachilik va kiyim mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi, mlrd.so'mda

Samarqand viloyatida to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarishdagi qonuniyatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2010–2024-yillarda sohada barqaror o'sish tendensiyasi mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu qonuniyat asosida eksponensial tekislash usulini qo'llab, 2025–2030-yillargacha mahsulot ishlab chiqarish prognozini tuzish mumkin.

Eksponensial tekislash (Exponential Smoothing) usuli – bu vaqt qatorlarini prognozlash usuli bo'lib, unda yangi kuzatuvlarning (ya'ni davrning oxirgi yillaridagi qiymatlar) muhimligi eski kuzatuvlarga nisbatan yuqori bo'ladi. Oddiy eksponensial tekislashning formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$S_t = \alpha Y_t + (1 - \alpha) S_{t-1}$$

Bunda: Y_t – qatorning haqiqiy soni;

S_t – qatorning t-chi davrdagi tuzatilgan son;

α – tuzatish koeffitsiyenti ($0 < \alpha < 1$). Agar α nolga yaqinlashsa prognoz oldingi ma'lumotlarni ko'proq hisobga oladi, aksincha birga yaqinlashsa, prognoz oxirgi ma'lumotlarni o'ta muhim deb hisoblaydi. Mamlakatimizdagi oxirgi yillardagi chuqur islohotlarni hisobga olgan holda bizlar α -koeffitsiyentini 0,8ga teng deb oldik (3-jadval). Prognozni bajarish uchun biz Samarqand viloyatida 2010-2024-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmlari ma'lumotlaridan foydalandik².

Holtning chiziqli trend usuli (Holt's Linear Trend Method) — bu ikki komponentli eksponensial silliqlash usuli. U vaqt qatorlarida nafaqat darajalarni (qiymatlarni), balki trendni ham hisobga oladi. Shuning uchun oddiy eksponensial silliqlashdan farqli ravishda, bu usul qatorning o'zgarish tezligini va yo'nalishini ham tuzatadi. Shunda prognozning umumiy formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$\hat{Y}_{t+h} = L_t + h \cdot T_t$$

2 Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси Самарақанд вилояти бошқармаси очик маълумотлари (https://samstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile_download&catid=286&id=5805&Itemid=1000000000000)



Bunda: L_t - darajaning bahosi;
 T_t - trendning bahosi;
 h - prognoz davri.

Holt usuli bo'yicha qilingan prognoz birmuncha aniqroq hisoblanadi, chunki u mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga oladi. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib hisoblarni bajarsak, quyidagi natijalarni olamiz (3-jadval).

3-jadval. Eksponensial tuzatish va Xolt usulida Samarqand viloyatida to'qimachilik-kiyim ishlab chiqarish hajmlarining prognozi, mlrd.so'm

Yillar	Eksponensial tuzatish usuli	Xolt usuli
2025	9722,818	9715,989
2026	11175,339	11167,629
2027	12627,860	12619,269
2028	14080,382	14070,909
2029	15532,903	15522,549
2030	16985,424	16974,189

Jadvaldagi prognozlarning o'zaro yaqinligi bajarilayotgan hisoblar mavjud tendensiya va trend chizig'iga mos kelishini ko'rsatadi. Shunga asoslanib, yuqori ehtimol bilan 2030-yilda Samarqand viloyatida to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 16 980 milliard so'mga yetishi taxmin qilinadi.

To'qimachilik va kiyim mahsulotlarini ishlab chiqarishda umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birga, fizik hajmlardagi ko'rsatkichlar ham muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega (tonna, kvadrat metr, dona, juftlik va hokazolar). To'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish bo'yicha tahlilni davom ettirish uchun, biz ishlab chiqarish sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning fizik o'zgarishini kuzatib bordik (4-jadval)

4-jadval. 2017-2024-yillarda Samarqanda viloyatida sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksining o'zgarishi, foizda³


	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ishlab chiqaradigan sanoat	124,3	112,4	106,0	105,4	112,5	109,3	106,5	108,4
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	120,4	95,4	95,9	135,6	96,7	92,6	110,0	103,9
Kiyim ishlab chiqarish	120,9	152,3	85,5	80,1	101,0	94,6	106,1	110,9

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, viloyatda 2017–2024-yillarda jami ishlab chiqarish sanoati mahsulotlarining fizik hajmi barqaror o'sib kelgan. O'rtacha yillik o'sish kamida 105,4 foizni (2020-yilda), eng katta o'sish esa 124,3 foizni (2017-yilda) tashkil qilgan.

To'qimachilik mahsulotlariga keladigan bo'lsak, kuzatiladigan davrning aksariyat yillarida fizik hajmining pasayishini ko'rishimiz mumkin. Kiyim ishlab chiqarishning fizik hajmlari esa notekis o'zgarib kelgan, ya'ni 2017 va 2018-yillarda katta o'sish kuzatilsa, 2019, 2020 va 2022-yillarda oldingi yilga nisbatan pasayish bo'lgan. 2023-yildan boshlab ishlab chiqarish hajmi o'sish tendensiyasiga muvofiq o'zgargan. Mahsulot ishlab chiqarishning fizik hajmlari tahlili viloyat korxonalarida foydalanilmagan zaxiralar ko'pligini ko'rsatadi.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining viloyat iqtisodiyotidagi o'rnini uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rnini orqali baholash mumkin. To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyatning eksport salohiyatining asosiy qismini tashkil qiladi. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyatida jami 14 turdagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari o'rin olgan (5-jadval).

3 Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси Самарақанд вилояти бошқармаси маълумотлари асосида тузилган



2-rasm. 2017-2024-yillarda Samarqand viloyatida to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarning eksportining o'zgarishi, mlrd.so'm


To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarining eksportini tahlil qilish uchun, tashqi iqtisodiy tovar nomenklaturasiga kiritilgan ushbu o'n to'rtta mahsulot turini guruhlariga birlashtirdik, ya'ni ip-kalava, gilamlar, matolar, tayyor kiyimlar va boshqa tayyor to'qimachilik mahsulotlari (6-jadval).

6-jadval. Samarqand viloyatida 2017-2024-yillarda to'qimachilik va trikotaj-kiyim mahsulotlar eksportining tarkibi, foizlarda⁴

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami ip-kalava	25	22	36	46	53	53	40	48
Jami gilamlar	51	45	34	28	19	14	16	17
Jami matolar	0	0	0	3	7	6	5	4
Jami tayyor kiyim mahsulotlari	23	33	28	21	18	24	34	24
Boshqa tayyor to'qimachilik mahsulotlar	1	0	2	3	3	4	6	7
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, kuzatiladigan davrda to'qimachilik va trikotaj-kiyim mahsulotlari eksportida ip-kalava mahsulotlarining ulushi oshib borgan (2017-yildagi 25 %dan 2024-yildagi 48 %gacha), ya'ni eksportning xom ashyo tomoniga siljishi ijobiy holat deb hisoblanmaydi. Gilamlar eksporti ulushi keskin pasayishi alohida e'tiborga molik. Shu bilan birga, matolar hamda boshqa tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksportining oshishi kuzatilmoqda (3-rasm).

4 Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси Самарақанд вилояти бошқармаси маълумотлари асосида тузилган



3-rasm. 2024-yilda Samarqand viloyati to'qimachilik va trikotaj-kiyim mahsulotlar eksportining tarkibi

Agar mahsulotlarni tayyor (gilam, tayyor kiyim mahsulotlari, boshqa turdagi tayyor to'qimachilik mahsulotlari) va yarim tayyor (ip-kalava, matolar) turlariga ajratadigan bo'lsak, 2017-yilda tayyor to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari jami soha eksportining 75 %ini tashkil qilgan. 2024-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 48 %gacha pasaygan.

Yarim tayyor mahsulotlar, ya'ni ishlov berishning keyingi bosqichi uchun xom-ashyo rolini bajaradigan mahsulotlar bo'yicha 2017-yildagi ulushi 25 % bo'lgan va 2024-yilga kelib 52 %ga yetgan.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarining Samarqand viloyatining import operatsiyalarida ham aynan shu turdagi mahsulotlarning ulushi tahlil qilingan (7-jadval).

7-jadval. Samarqand viloyatida to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarning import ko'rsatkichlari⁵

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ip-kalava	28714,1	44946,2	44630,5	36727,2	44783,1	54454,4	68376,8	72483,3
Gilamlar	1,5	4,6	1,2	6,6	71,1	439	875,3	515,7
Matolar	4 645,0	5 832,5	6 869,6	6891,8	9 226,1	12 095,2	16 332,4	13 053,3
Tayyor kiyim mahsulotlari	433,5	1423,7	419,8	51,1	59,8	219,5	353,6	323,2
Boshqa tayyor to'qimachilik mahsulotlar	251,9	112,3	174,2	132,8	164	430,8	246,8	260,3
Jami	34046,0	52319,3	52095,3	43809,5	54304,1	67638,9	86184,9	86635,8

Samarqand viloyatida to'qimachilik va trikotaj-kiyim mahsulotlari import operatsiyalari tarkibida ip-kalava mahsulotlari asosiy o'rinni egallab turibdi (2017-yilda 84,3 % va 2024-yilda 83,6 %). Ikkinchi o'rinda matolar importi joy olgan bo'lib, ular importning tegishli tartibda 13,6 % va 15,1 %ini tashkil qilgan.


Bundan xulosa qilish mumkinki, Samarqand viloyatining to'qimachilik va trikotaj-kiyim mahsulotlari sanoati ijobiy tashqi iqtisodiy saldogga ega, ya'ni importda tayyor mahsulotlar ulushi past (8-jadval; 4-rasm).

5 Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси Самарақанд вилояти бошқармаси маълумотлари асосида тузилган




8-jadval. Samarqand viloyatida 2017-2024-yillarda to'qimachilik va trikotaj-kiyim mahsulotlar importining tarkibi, foizlarda

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ip-kalava	84,3	85,8	85,6	83,3	82,5	80,5	79,3	83,6
Gilamlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1	0,6	1,0	0,6
Matolar	13,6	11,1	13,2	15,6	17,0	17,9	18,9	15,1
Kiyim mahsulotlari	1,3	2,7	0,8	0,1	0,1	0,3	0,4	0,4
Boshqa tayyor to'qimachilik mahsulotlar	0,7	0,2	0,3	0,3	0,3	0,6	0,3	0,3
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0



4-rasm. 2024-yilda Samarqand viloyati to'qimachilik va trikotaj-kiyim mahsulotlar importining tarkibi

of eksport darajasini baholash uchun olingan raqamlarni jami to'qimachilik va kiyim eksporti hajmi bilan solishtirdik. Ushbu diagrammadan ko'rish mumkinki, to'qimachilik va kiyim mahsulotlari eksporti importdan ko'p bo'lishi 2020-yilda 66 %dan oshib ketgan, 2024-yilga kelib esa 34,7 %gacha pasaygan (5-rasm).




5-rasm. Samarqand viloyatida to'qimachilik va kiyim mahsulotlari sof eksporti bo'yicha ma'lumotlar



Buni koronavirus pandemiyasi davrida an'anaviy bozorlardagi faollikni oshirish va yangi bozorlarni kashf etilishi bilan bog'lash mumkin. Oxirgi yillarda esa sof eksportning pasayishi jahon va ichki to'qimachilik bozorlarida raqobatning kuchayishi hamda O'zbekiston iqtisodiyotining ochiqlanishi bilan bog'liq deb hisoblanadi.

Viloyatda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining eksportini to'liq tahlil qilish uchun sof eksport hajmini mahsulotlar eksporti hajmiga nisbatan aniqlaymiz (6-rasm).



6-rasm. Samarqand viloyatida to'qimachilik va kiyim mahsulotlari sof eksportining viloyatning jami eksport hajmiga solishtirma nisbati, foizda

Ushbu diagrammaning ma'lumotlariga asosanib, oxirgi yillarda viloyat to'qimachilik mahsulotlari sof eksportida pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 33,49 %ni, 2024-yilda esa 26,26 %ni tashkil qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Samarqand viloyatining to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati respublika miqyosida va xalqaro bozorda sezilarli o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. 2017–2024-yillar davomida viloyatning ishlab chiqaradigan sanoati mahsulotlarining umumiy hajmi besh barobarga o'sib, to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish yo'nalishi ham jadal rivojlangan. Shu bilan birga, to'qimachilik sanoatining ulushi soha umumiy ishlab chiqarishida biroz pasaygan, ammo bu yo'nalish hali ham iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Fizik hajmlar tahlili viloyat korxonalarida foydalanilmagan zaxiralar mavjudligini ko'rsatdi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda esa viloyat to'qimachilik va trikotaj-kiyim mahsulotlarining eksport va import ko'rsatkichlari o'zgaruvchan bo'lib, ip-kalava mahsulotlari eksport va importda asosiy o'rinni egallab turadi. Tayyor mahsulotlar eksport ulushi 2017-yildagi 75 %dan 2024-yilga kelib 48 %gacha pasaygan, yarim tayyor mahsulotlar ulushi esa 25 %dan 52 %gacha oshgan. Sof eksport ko'rsatkichlari 2020-yilda eng yuqori 66 % darajaga yetgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 34,7 %gacha pasaygan. Bu tendensiya koronavirus pandemiyasi davridagi faollik va yangi bozorlarni kashf etish bilan bog'liq bo'lsa, oxirgi yillarda jahon va ichki bozorlaridagi raqobatning kuchayishi hamda O'zbekiston iqtisodiyotining ochiqlanishi bilan izohlanadi.

Viloyat to'qimachilik korxonalari uchun marketing faoliyatini tahlil qilish va unda yangi usullar, yondashuvlar hamda ilg'or mexanizmlarni joriy etish zarurati dolzarb bo'lib, bu respublika va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ishlab chiqarishning o'sishini davom ettirish va eksport salohiyatini maksimal darajada oshirish maqsadida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar tarkibi, fizik hajmlar va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha tizimli monitoring zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 2018 yil. – 56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
3. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.: O'zbekiston, 2016.- 56 b.



4. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2017.- 104 b.
5. Soliev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.
6. Ergashxodjaeva SH.J., Qosimova M.S., YUsupov M.A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
7. Bekmurodov A.Sh., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva Sh.J. Strategik marketing. O'quv qo'llanma. 2010.-161 b.
8. Bekmurodov A.Sh., Qosimova M.S. Safarov B.J., Musayeva Sh. Marketingni boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007, 160-b.
9. Bobojanov B. R. O'zbekistonda farmatsevtika mahsulotlari bozorining rivojlanish holatining statistik tahlili va prognozlash. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil.
10. Musaeva Sh.A. Marketing tadqiqotlari. Darslik "STAR-SEL" MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi. Samarqand-2023
11. Musaeva Sh.A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi O'quv qo'llanma "Mahorat" nashriyoti, Samarqand – 2022
12. Musaeva Sh.A., Usmonova D.I. Innovatsion marketing "TURON EDITION" 2021 yil uchun o'quv qo'llanma.
13. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasining Samarqand viloyati boshqarmasi ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
